

ÖZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLIV VA O'RТА MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"



GEODEZIYA
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	700 000 – Muhandislik, ishllov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	720 000 – Ishlab chiqarish va ishllov berish sohalari
Ta'lim yo'nalishlari:	60722500 - Geodeziya, kartografiya va kadastr (qurilish) 60722500 - Geodeziya, kartografiya va kadastr (bino inshootlar kadastri)

Qarshi-2022

Активация Wi-Fi
Чтобы активировать раздел "Параметры",

Fan/modul kodi GEO1112	O‘quv yili 2022-2023 2023-2024	Semestr 1-4	ECTS - Kreditlar 16	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4-4-4-4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Geodeziya	240	240	480
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>“Geodeziya” fani - “Geodeziya, kartografiya va kadastr” ta’lim yo‘nalishining 1-kurs va 2-kurs talabalari uchun o‘qitiladi.</p> <p>Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga Yerning shakli va kattaligi haqidagi tushunchani; karta va planlarni tuzish usullarini va ularni to‘g‘ri o‘qishni; geodezik o‘lhash ishlarini bajarishni, hamda ularning natijalarini hisoblash va baholash asoslarini; geodezik o‘lhashlarda yo‘l qo‘yiladigan xatolarni aniqlash va tuzatishni; geodezik tayanch va plan olish to‘rlarini yaratish asoslarini; yirik masshtabli topografik plan olish; geodezik asboblarning tuzilishini o‘rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, geodeziya va kadastr sohasidagi turli jarayonlarga ijobiy yondashuv, geodeziya va qurilish sohasidagi huquqiy-me’yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyatini bilish, ularni amaliyotda bevosita qo‘llashni o‘rgatish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-kurs</p>			

1-Mavzu.	Geodeziya	haqida	ma'lumotlar.
Geodeziya fani va uning vazifalari. Geodeziyaning xalq xo'jaligidagi va davlat mudofasidagi o'rni. Geodeziya fanining tarixiy rivojlanish haqida qisqa ma'lumot.			
2-Mavzu. Yer sirtidagi nuqta holatini aniqlash			
Yerning shakli va kattaligi. Geoid va yer ellipsoidi. Geodeziyadagi proyeksiyalash uslublari. Geodezik proyeksiyalash uchun kerak bo'lgan kattaliklar. Yer sirti egriligini gorizontal masofaga ta'siri.			
3-Mavzu. Geodeziyada qo'llanadigan koordinata tizimlari			
Fazoviy: geografik va geodezik koordinata tizimlari. tekislikdagi yassi koordinata tizimlari.			
4-Mavzu. Joydagи nuqta balandliklari			
Joydagи nuqtalar balandliklari. Xalqaro koordinata va balandlik tizimlari.			
5-Mavzu. Geodezik oriyentirlash			
Geodezik oriyentirlash tushunchasi. Joyda chiziqlar yo'nalishini aniqlash. Haqiqiy azimut va rumblar. Meridianlar yaqinlashish burchagi. Direksion burchak. Direksion burchak va rumb burchaklari orasidagi munosabat. Haqiqiy azimut va magnit azimutlari. Magnit strelkasini og'ish burchagi. Kartadagi chiziqning direksion burchagini o'lhash, haqiqiy azimutini, magnit azimutini va rumbini aniqlash.			
6-Mavzu. Direksion burchak va gorizontal burchak bog'liqligi			
Burchak tomonlarining direksion burchaklari orqali ichki burchakni hisoblash. Direksion burchak va gorizontal burchak (o'ng yoki chap burchak) orasidagi bog'liqlik. Geodezik masalalar: to'g'ri va teskari geodezik masala.			
7-Mavzu. Topografik karta va planlar			
Karta va plan tushunchasi. Kartalar klassifikatsiyasi. Raqamli karta va planlar. Joyni raqamli modeli Masshtablar: Sonli masshtab va natural masshtab. Masshtab asosi. Masshtab aniqligi. Chiziqli masshtab va ko'ndalang masshtab, ularning aniqligi. asosida plan tuzish.			
8-Mavzu. Topografik karta va planlarning varaqlarga bo'linishi va nomenklaturasi.			
Joyning relefni va uni karta va planlarda tasvirlanishi: gorizontallar va bergshtrixlar. Turli masshtabdagi kartalarda relef qirqim balandligi. Nuqtalarning otmetkalari bo'yicha gorizontallar o'tkazish.			
9-Mavzu. Topografik karta va plan shartli belgilari			

Topografik karta ramkalari, ramka burchaklarining geografik koordinatalari, kilometrlar to‘ri. Kartadagi nuqtani to‘g‘ri burchakli va geografik koordinatalarini aniqlash Topografik karta ramkasi tashqarisidagi belgilar va ulardan foydalanish.

10-Mavzu. Topografik karta va planda gorizontallar yordamida masalalar yechish

Kartadagi yo‘nalishning direksion burchak, haqiqiy va magnit azimut xamda rumb qiyimatini aniqlash. Topografik karta va planda gorizontallar yordamida masalalar yechish

11-Mavzu. O‘lchash va o‘lchash xatoliklari

O‘lchashlar va ularning turlari. O‘lchash xatolari va xato turlari: sistematik, tasodify va qo‘pol xatolar. O‘lchash xatolari nazariyasining vazifalari. Tasodify xato xossalari. O‘lchash natijalarini aniqligini baholash ko‘rsatgichlari. Arifmetik o‘rta miqdor prinsipi. O‘lchash aniqligini baholash. O‘rta kvadratik xato, chekli xato, o‘rta kvadratik nisbiy xato, haqiqiy nisbiy xato, o‘rtacha nisbiy xato, chekli nisbiy xato. Arifmetik o‘rta miqdorning o‘rta kvadratik xatosi. Teng va teng emas o‘lchashlar. O‘lchash natijalarining vazni. O‘rta kvadratik xatoni eng ehtimoliy xato orqali ifodalash. Bessel formulasi.

12-Mavzu. Gorizontal burchak o‘lchash

Gorizontal burchak o‘lchash mohiyati. Gorizontal burchak o‘lchash usullari, burchak o‘lchash aniqligi. Burchak o‘lchash asboblari. Burchak o‘lchash asboblari va ularning asosiy qismlari. Ko‘rish trubasi, limblar, adilaklar va sanoq olish moslamalari. Teodolit va taxeometrlar, ularning klassifikatsiyasi va texnik tavsiflari.

13-Mavzu. Vertikal burchak o‘lchash.

Vertikal doira nazariyasi va uning tuzilishi. Qiyalik burchakni o‘lchashda yuzaga keladigan xatolik turlari, xatolarni aniqlash va ta’sirini kamaytirish usullari.

14-mavzu. Burchak o‘lchash asboblari va teodolit qismlari

Texnik teodolitlarni tekshirish va sozlash. Texnik teodolitlarni geometrik o‘qlari. Teodolitni ish holatiga keltirish. Texnik teodolitlarni tekshirish shartlari .

15-mavzu. Joyda masofa o‘lchash.

Joyda masofa o‘lchashning maqsad va mohiyati. Masofa o‘lchashda qo‘llanadigan asbob turlari, uning aniqliklari va o‘lchash uslublari. O‘lchov vositalarini tekshirish, komporatorlar. Lenta va ruletka yordamida masofa o‘lchash. Qiyalikda o‘lchangan masofa gorizontal quyilmasini aniqlash, o‘lchash natijalariga tuzatmalar kiritish

(komporator tuzatmasi). Doimiy burchakli va doimiy bazisli optik dalnomerlar bilan masofa o‘lhash. Ipli dalnomer koefitsentini aniqlash, ipli dalnomer ish formulasi.

16-mavzu. Bilvosita masofa o‘lhash.

Svetodalnomer va radiodalnomerlarda masofa o‘lhash tushunchasi. Elektron dalnomerlar va ular haqida umumiy ma’lumot. Masofa o‘lhashni impulsli usuli. Masofa o‘lhashni fazali usuli. Zamonaviy elektron ruletkalar. Borib bo‘lmash masofani aniqlash. Masofa o‘lhashning parallaktik usuli.

17-mavzu. Yuza aniqlash.

Kartadagi o‘lhash natijalari asosida va joydagi o‘lhash natijalari asosida yuza aniqlash usullarini mohiyati. Geometrik yuza aniqlash usuli. Analitik yuza aniqlash usuli. Grafik yuza aniqlash usuli.

18-mavzu. Mexanik usulda yuza aniqlash.

Mexanik usulda yuza aniqlash usuli. Qutbiy planimetri sinash va tekshirish. Planimetr doimiyligini aniqlash.

19-Mavzu. Nivelirlash.

Nivelirlashning mohiyati va usullari: geometrik, trigonometrik, barometrik, gidrostatik va avtomatik nivelirlashlarning mohiyati, unda qo‘llanadigan asboblar va asosiy formulalar. Geometrik nivelirlashning mohiyati va uslublari. Nivelirlash natijalariga yer egriligi va refraksiyaning ta’siri. Nivelir va nivelirlash reykalarining turlari va ularni tuzilishi. Nivelir va nivelirlash reykalarini tekshirish va sozlash.

20-Mavzu. Texnikaviy nivelirlash.

Bo‘ylama texnikaviy nivelirlash. Texnikaviy nivelirlash yo‘lini marka va reperlarga bog‘lash. Bo‘ylama texnikaviy nivelirlashda ish tartibi. Trassa qayrilma elementlari. Trassa piketlari bo‘yicha geometrik nivelirlash ishlari, nivelirlash natijalarini nazorat qilish usullari.

21-Mavzu. Trassa ko‘ndalang qirqimini chizish

Dala o‘lhash natijalarini qayta ishlash hisobi. Trassa bo‘ylama qirqimini chizish. Loyixa chizig‘i otmetkalarini hisoblash. Ko‘ndalang nivelirlash mohiyati. Ko‘ndalang nivelirlash dala o‘lhash natijalarini qayta ishlash hisobi. Trassa ko‘ndalang qirqimini chizish.

22-Mavzu. Yuzani texnikaviy nivelirlash.

Yuza nivelirlash usullari, qo‘llanish sohasi va ish tarkibi. Kvadratlar usulida yuzani nivelirlash. Yuzani vertikal loyihalash. Geodezik tayanch to‘rlari.

23-Mavzu. Geodezik to‘rlar.

Geodeziyadagi asosiy koordinata tizimlari. Geodezik to‘rlarni barpo qilishning ana’naviy usullari. Planli va balandlik geodezik to‘rlar. Planli tarmoqlarni o‘rnatish usullari. Triangulyatsiya, trilateratsiya va poligonometriya, ularning klasslari. Ularni barpo etishda talab etilgan aniqliklar. Planli to‘r punktlarini joyga o‘rnatish: geodezik markaz va belgilar. Geodezik signal, geodezik piramida.

24-mavzu. Balandlik to‘rlari

Nivelirlash klasslari va ularni barpo etishda talab etilgan aniqliklar. Nivelirlash yo‘llarini o‘tkazish, nivelirlash punktlarini joyga o‘rnatish: grunt reperlari. Devoriy marka va reperlar. Geodezik zichlashtirish va s’emka to‘rlari.

25-Mavzu. Zamonaviy GNSS punktlari.

Yer sun’iy yo‘ldoshlari yordamida geodezik punkt koordinatalarini aniqlash. GNSS punktlarini joyga o‘rnatish

26-Mavzu. Geodezik planga olish haqida umumiy ma’lumot

Planga olish turlari. Planga olishning geodezik asosi. Planga olish masshtabi va relef kesim balandligini tanlash.

27-Mavzu. Teodolit bilan planga olish.

Teodolit bilan planga olishning mohiyati. Teodolit bilan planga olish dala ishlari. Joy konturi va predmetlarni planga olish usullari.

28-Mavzu.Taxeometrik planga olish.

Taxeometrik planga olishning mohiyati. Taxeometrik planga olish ish tarkibi. Taxeometrik planga olish dala ishlari. Tafsilot va relefni planga olish usullari.

29-Mavzu.Menzulaviy plan olish.

Menzulaviy plan olish mohiyati va qo‘llanish sharoiti. Menzula komplektiga kiruvchi asboblar va ularni tekshirish shartlari. Planli va balandlik asoslari. Plan olish tarmog‘ini barpo qilishning uslublari.

30-Mavzu. Geodezik planga olishning avtomatlashgan usullari.

Geodezik planga olishning avtomatlashgan usullari haqida tushuncha. Elektron taxeometr yordamida geodezik planga olish. Joyni raqamli modeli asosida plan tuzishning avtomatlashgan usullari

2-kurs

1-Mavzu. Barometrik nivelirlash.

Kursning qisqa mazmuni va maqsadi. Barometrik nivelirlashning mohiyati. Barometrik nivelirlashda qo‘llaniladigan asboblar. Barometrik nivelirlashning usullari.

2-Mavzu. Davlat nivelir to'rlari haqida qisqacha ma'lumot. III va IV klass niveliplashning mohiyati, usullari, aniqligi va qo'llaniladigan asboblar.

Davlat nivelir to'rlari haqida qisqacha ma'lumot. III va IV -klass niveliplashning mohiyati. Nivelirlash usullari. III va IV -klass niveliplashda qo'llaniladigan asboblar.

3-Mavzu. Aniq niveliirlar guruhi: N3, N3K, Bosch GOL niveliirlari va niveliplash reykalar, ularni tekshirish shartlari.

Niveliirlar klassifikatsiyasi. N3, N3K, Bosch GOL niveliirlari. Nivelirlash reykalar. Nivelirlarni tekshirish va kuzatish. Nivelir reykalarini tekshirish va kuzatish.

4-Mavzu. Yangi texnologiyalarga asoslangan eletron raqamli niveliplash.

Yuqori aniqlikdagi niveliirlarning yangi turi-elektron raqamli niveliirlar. Nivelirda o'rnatilgan dastur. Invar reykalar bilan o'lchashlarni bajarish.

5-Mavzu. III va IV-klass niveliplash ishlarini tashkil qilish va bajarish.

III va IV- klass niveliplashda ishlataladigan asboblar. Niveliirlar va reykalar klassifikatsiyasi. Aniq niveliirlarga qo'yiladigan talablar. Nivelir va nivelir reykalarini tekshirish va sozlash. III va IV -klass niveliplashda ishlarni tashkil etish.

6-Mavzu. III va IV klass niveliplash dala o'lhash ishlari va o'lhash natijalari bo'yicha hisoblash ishlari.

IV klass niveliplash dala o'lhash ishlari. III klass niveliplash dala o'lhash ishlari. IV klass niveliplash dala o'lhash ishlari natijalari bo'yicha hisoblash ishlari. III klass niveliplash dala o'lhash ishlari natijalari bo'yicha hisoblash ishlari.

7-Mavzu. III va IV klass niveliplashning ayrim usullari (keng daryo orqali niveliplash).

III va IV klass niveliplashning ayrim usullari (keng daryo orqali niveliplash). Nivelirlash usuli va qo'llaniladigan asboblar.

8-Mavzu. Nivelir yo'llari va to'rlarini tenglashtirish.

Dala o'lchashlari va o'lhash natijalarini matematik ishlovi. Nivelirlash yo'llari va to'rlarini tenglashtirish usullari. Ekvivalent, ketma-ket yaqinlashish usulida tenglashtirish. O'lhash va hisoblash natijalariga baho berish.

9-Mavzu. Nivelir to'rini Popovning poligonlar usulida tenglashtirish.

Nivelir to'rini Popovning poligonlar usulida tenglashtirish. Tenglashtirish natijalariga baho berish

10-Mavzu. Nivelir to'rini Popovning tugun usulida tenglashtirish.

Nivelir to‘rini Popovning tugun usulida tenglashtirish. Tenglashtirish natijalariga baho berish.

11-Mavzu. Davlat geodezik tarmoqlarni barpo etish.

Davlat geodezik tarmoqlarni barpo etish usullari. Geodezik tarmoqlarni joyda o‘rnatish va mahkamlash.

12-Mavzu. Planli tarmoqlarni. Barpo etish usullari.

Triangulyatsiya, trilateratsiya va poligonometriya, ularning klasslari. Barpo etishda talab etilgan aniqliklar. Planli tarmoq punktlarini joyga o‘rnatish. Geodezik markaz va belgilar. Geodezik signal, geodezik piramida.

13-Mavzu. Balandlik tarmoqlari.

Nivelirlash klasslari va ularni barpo etishda talab etilgan aniqliklar. Nivelirlash yo‘llarini o‘tkazish, nivelirlash punktlarini joyga o‘rnatish grunt reperlari. Devoriy marka va reperlar.

14-Mavzu. Geodezik asos yaratish usullari.

Davlat planli geodezik shoxobchalari haqida umumiy tushuncha. Poligonometriya yo‘llariga va to‘rlariga qo‘yiladigan talablar.

15-Mavzu. Geodezik zichlashtirish tarmoqlari.

III, IV klass, 1 va 2 razryad triangulyatsiya hamda poligonometriya tarmoqlari. Tarmoqlarni barpo qilishda qo‘yilgan aniqlik talablari.

16-Mavzu. Poligonometriya haqida umumiy ma’lumotlar.

Poligonometriya turlari. Poligonometriyada ishlarini tashkil qilish. Masofa o‘lchash xatolari Poligonometriya yo‘liga ta’siri.

17-Mavzu. Aniq teodolitlarni tekshirish va sozlash.

Teodolitlarni tekshirish. Teodolitlarni tekshirish va sozlash. Teodolitlarni, vizirlash markalari.

18-Mavzu. Poligonometriyada burchak o‘lchash usullari.

Burchak o‘lchash uchun ishlatiladigan asboblar. Burchak o‘lchash usullari. Uch shtativli sistemada burchak o‘lchash. O‘lchangan burchaklarni hisoblash va baho berish. Burchak o‘lchashda xatolar manbai, ularni kamaytirish yo‘llari. Burchak o‘lchash aniqligi, markazlashtirish va reduksiya xatolari.

19-Mavzu. Poligonometriyada masofa o‘lchash.

Joyda masofa o‘lchashning maqsad va mohiyati. Masofa o‘lchashda qo‘llanadigan asbob turlari, uning aniqliklari va o‘lchash uslublari. Baziz asbobi (VP) yordamida masofa o‘lchash. Qiyalikda o‘lchangan masofa gorizontal quyilmasini aniqlash, o‘lchash natijalariga tuzatmalar kiritish. Doimiy burchakli va doimiy bazisli optik dalnomerlar bilan masofa o‘lchash. Ipli dalnomer koefitsentini aniqlash, ipli dalnomer ish formulasi.

20-Mavzu. Svetodalnomer va radiodalnomerlarda masofa o‘lchash tushunchasi.

Elektron dalnomerlar va ular haqida umumiy ma’lumot. Zamonaviy elektron ruletkalar. Elektromagnit to‘lqinlarni vaqt mobaynida tarqalishiga asoslanib masofani aniqlash prinsiplari. Svetodalnomerlarning klassifikatsiyasi. Svetodalnomerlar (CT-65) bilan masofa o‘lchash.

21-Mavzu. Vizirlash markalari. Vizir markalarini tekshirish va sozlash.

Vizirlash markalari bilan tanishish. Vizirlash markalarini tekshirish va sozlash.

22-Mavzu. Poligonometriya punktlarini joyiga o‘rnatish va loyiha tuzish.

Ishni tashkil etish. Loyihani tuzish. Poligonometriya yo‘llarini hisoblash aniqligi. Poligonometriya punktlarining rekognossirovkasi. Poligonometriya punktlarini o‘rnatish

23-Mavzu. Poligonometriya yo‘llarini bog‘lash usullari.

Yuqoridagi tayanch punktining koordinatalarini pastga yerga tushurish metodi. To‘g‘ri va teskari bir karrali geodezik kesishtirish usuli. Teskari va to‘g‘ri ko‘pkarrali geodezik kesishtirish. Hisoblangan natijalarga baho berish.

24-Mavzu. Poligonometriya yo‘llari va to‘rlarini tenglashtirish.

Poligonometriya yo‘llari va to‘rlarini tenglashtirish usullari. Yakka poligonometriya yo‘lini tenglashtirish. Poligonometriya to‘rini tenglashtirish. Poligonometriya yo‘lining taxminiy koordinatalarini hisoblash. Taxminiy direksion burchak va koordinatalarga tuzatmalarini hisoblash. Koordinatalarni hisoblash. Tenglashtirilgan natijalarga baho berish.

25-Mavzu. Yirik masshtabda plan olish usullari.

Stereotopogarafik va aralash (kombinirovanniy) usulida plan olish. Geodezik plan olishning asosi va uni qurish usullari. Planli va balandlik plan olish asoslari. Stereotopografik va kombinirovanniy usulda yirik masshtabli plan olish. Opoznaklarni loyihalashtirish va bog'lash. Yirik masshtabda planga olish uchun geodezik asos va uni zichlashtirish usullari. Stereotopografik planga olish va planga olishda panli va balandlik belgilarini bog'lash. Aerofotosuratlarni deshifrirovkalash. Plan tuzish.

26-Mavzu. Geodezik tarmoqlarini barpo qilishning yangi texnologiyalari.

GNSS tizimlari va tayanch stansiyalari. GNSS priyemniklarini ishlash prinsipi. Statik va kinematik rejimlar.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy amaliy mashg'ulot mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, talabalar geodezik asboblar bilan tanishib ularni tuzilishini o'rGANADILAR, asboblar bilan o'lchov ishlarini bajarib natijalarni matematik ishlovini bajarish, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, masalalar yechish, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-kursda

- Masshtablar bilan ishlash;
- Shartli belgilar bo'yicha izoh;
- Topografik karta nomenklaturalari bo'yicha masala yechish.
- Topografik kartadagi yo'nalishning oriyentirlash elementlarini aniqlash.
- Topografik kartadagi nuqtaning to'g'ri burchakli koordinatasini aniqlash;
- Topografik kartadagi nuqtaning geografik koordinatasini aniqlash;
- To'g'ri burchakli koordinatalari asosida to'g'ri geodezik masala yechish
- Kartada aniqlangan nuqtalarning to'g'ri burchakli koordinatalari asosida teskari geodezik masala yechish
 - Kartadagi nuqtaning absolyut va nisbiy balandligini aniqlash
 - Kartada berilgan berilgan kesma bo'yicha profil tuzish
 - Texnikaviy teodolitlarni tuzilishini o'rGANISH;
 - Texnikaviy teodolitlarni tekshirish;

- Texnikaviy teodolit bilan priyomlar usulida gorizontal burchak o‘lhash;
- Texnikaviy teodolit bilan qiyalik burchagini o‘lhash;
- Joyda iplik dalnomer bilan masofa o‘lhash.
- Iplik dalnomer koefitsentini aniqlash.
- Joy konturi va predmetlarni gorizontal planga olish.
- Texnikaviy nivelirlar va nivelirlash reykalarining tuzilishini o‘rganish.
- Texnik nivelirni tekshirish;
- Texnikaviy nivelirlashda dala o‘lhashlarni bajarish
- Texnikaviy nivelirlash dala jurnalini hisoblash
- Trassani nivelirlashda qayrilma elementlarini hisoblash
- Stansiyada taxeometrik planga olish va hisoblash.
- Menzula va kiprigel komplektini o‘rganish;
- Menzula va kiprigelni tekshirish;
- Menzulaviy plan olishdagi dala ishlari;
- Topografik kartadagi shartli belgilarni o‘rganish;
- Topografik karta nomenklaturalari bo‘yicha masala yechish;
- Tasodifiy xatolar o‘lhash natijalarini baholash;
- O‘lhash natijalari funksiyasini baholash;
- Teng aniqlikdagi o‘lhash natijalarini baholash;
- Berilgan yo‘nalishda profil chizish;
- Ikki nuqta orasida berilgan qiyalik burchagi yoki nishabligida katta bo‘limgan chizik o‘tkazish;
 - Suv ayirgich chiziqlarini o‘tkazish;
 - Suv yig‘iladigan havza chegarasi va yuzasini aniqlash;
 - Tutash teodolit yo‘li koordinatalarini hisoblash;
 - Notutash teodolit yo‘li koordinatalarini hisoblash;.
 - Teodolit yo‘l planini tuzish va rasmiylashtirish;
 - Analistik va grafik usullarda yuza hisoblash;.
 - Qutbiy planimetri sinash va tekshirish;
 - Planimetri yordamida yuza hisoblash
 - Chiziqli inshoatlarni texnikaviy nivelirlashda dala jurnalini ishslash: o‘zaro bog‘lanuvchi nuqtalarning otmetkalarning aniqlash
 - Trassa bo‘ylama va ko‘ndalang qirqimini chizish.
 - Loyixa chizig‘i otmetkalarini va ish otmetkasi hisobi;

- Maydonni niveliirlash: Dala jurnalini to‘ldirish va tekshirish;
 - Yuza niveliirlash natijasida maydonni topografik planini tuzish.
 - Maydonni gorizontal holda yoki ma’lum nishablikda tekislash uchun bajariladigan hisob ishlari;
 - Taxeometrik plan olishdagi dala ishlarni tekshirish
 - Texeometrik yo‘l o‘tkazishdagi hisob ishlari.
 - Taxeometrik yo‘l o‘tkazishdagi dala o‘lchash natijalari ishlovi
 - Taxeometrik yo‘l punktlarining koordinatalarini hisoblash..
 - Taxeometrik dala o‘lchash natijalarini qayta ishslash, yo‘l nuqtalari balandliklarini hisoblash.
 - Taxeometrik s’yomka;
 - Taxeometrik plan tuzish. Relefni tasvirlash va planni rasmiylashtirish
- 2-kursda**
- Aniq niveliirlarni tekshirish. (asosiy shartini 3 xil usulda tekshirish va sozlash shartlari.)
 - Yakka nivelir yo‘lini tenglashtirish.
 - Bir tugun nuqtali nivelir to‘rini tenglashtirish va hisoblangan natjalarga baho berish.
 - Nivelir to‘rini ekvivalent almashinuv usulida tenglashtirish.
 - Nivelir to‘rini ketma-ket yaqinlashish usulida tenglashtirish.
 - Nivelir to‘rini Popovning poligonlar usulida tenglashtirish.
 - Nivelir to‘rini Popovning tugunlar usulida tenglashtirish.
 - Poligonometriyada masofa o‘lchash va hisoblash.
 - Poligonometriyada burchak o‘lchash usullari va. Teodolitlarni, o‘rta kvadiratik aniqligi.
 - Poligonometriya yo‘llarini tayanch punktlarga bog‘lash usullari.
 - To‘g‘ri ko‘p karrali geodezik kesishtirish.
 - Teskari ko‘p karrali geodezik kesishtirish
 - Yakka poligonometriya yo‘lini tenglashtirish.
 - Bir tugun nuqtali poligonometriya to‘rini tenglashtirish.
 - Poligonometriya yo‘lini korrelat usulida tenglashtirish.
 - Poligonometriya yo‘lining taxminiy koordinatalarini hisoblash.
 - Poligonometriya to‘rini ekvivalent almashinuv usulida tenglashtirish.

- Poligonometriya to'rini ketma-ket yaqinlashuv usulida tenglashtirish.
- Stereotopografik usulda yirik mashtabli plan olish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlар

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Talaba fandan mustaqil ta'limni tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi va joriy nazorat sifatida baholanadi:

- mavzular bo'yicha konspekt (referat, taqdimot) tayyorlash. Nazariy materialni puxta o'zlashtirishga yordam beruvchi bunday usul o'quv materialiga diqqatni ko'proq jalb etishga yordam beradi. Talaba konspekti turli nazorat ishlarga tayyorgarlik ishlarini osonlashtiradi, vaqt ni tejaydi;
- o'qitish va nazorat qilishni avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishslash. Talabalar ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida olgan bilimlarini o'zlashtirishlari, turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rishlari uchun tavsiya etilgan elektron manbalar, o'z-o'zini nazorat qilish uchun test topshiriqlari va.b;
- fan bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar bilan ishslash. Mustaqil o'rganish uchun berilgan mavzular bo'yicha talaba tavsiya etilgan asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha o'quv, ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar. Bunda rus va xorijiy tillarlagi adabiyotlaridan foydalanish rag'batlantiriladi;
- Internet tarmog'idan foydalanish. Fan mavzularini o'zlashtirish uchun mavzu bo'yicha internet manbalarini topish, ular bilan ishslash nazorat turlarining barchasida qo'shimcha reyting ballari bilan rag'batlantiriladi;

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1-kursda

1. Karta va plan tushunchasi.
2. Kartalar klassifikatsiyasi.
3. Topografik karta va planlarning varaqlarga bo'linishi va nomenklaturasi.
4. Joy tafsiloti va relfini topografik karta va planlarda tasvirlash
5. Geodezik oriyentirlash.
6. Geodezik o'chashlar va ularning aniqligi.

7. Teng va tengemas o‘lchashlar o‘lhash aniqligiga baho berish.
8. Burchak o‘lhash asboblari.
9. Texnik teodolitlarni tekshirish shartlari va sozlash.
10. Joyda masofa o‘lhash.
11. Elektron dalnomerlar.
12. Yuza aniqlash.
13. Nivelirlash.
14. Geometrik nivelirlash.
15. Nivelir va nivelirlash reykalarini tekshirish va sozlash.
16. Geometrik nivelirlashda dala o‘lhash natijalarini qayta ishslash hisobi.
17. Yuza nivelirlash.
18. Geodezik tayanch to‘rlari.
19. Geodezik punktlarini joyga o‘rnatish.
20. Geodezik planga olish.
21. Teodolit bilan planga olish.
22. Taxeometrik planga olish.
23. Menzulaviy plan olish.

2-kursda

1. Barometrik nivelirlash va uning natijalarini hisoblash
2. III va IV klass nivelirlashda ishlatiladigan aniq nivelirlarning xarakteristikasi.
3. III va IV klass nivelirlashda ishlatiladigan zamonaviy raqamli nivelirlarning xarakteristikasi.
4. N3 va N3K nivelirlarni tekshirish.
5. Bosch GOL nivelirlari va ularni tekshirish
6. Davlat nivelir to‘rlari haqida qisqacha ma’lumot.
7. III va IV klass nivelirlash jurnalini hisoblash
8. Yakka nivelir yo‘lini tenglashtirish.
9. Nivelir to‘rini ekvivalent almashtirish usulida tenglashtirish.
10. Nivelir to‘rini ketma – ket yaqinlashish usulida tenglashtirish.
11. Nivelir to‘rini Popovning poligonlar usulida tenglashtirish.
12. Davlat planli geodezik shaxobchalari.
13. Svetodalnomer bilan masofa o‘lhash
14. Teodolitlar xarakteristikasi. Teodolitlarni tekshirish.
15. Burchak o‘lhash usullari va jurnalni hisoblash.

- 16.Elektron taxeometrlar xarakteristikasi
- 17.Polygonometriya punktlarining gorizontal burchaklarini taxeometrlar yordamida o‘lchash. Polygonometriya punktlarini tayanch punktlariga bog‘lash.
- 18.To‘g‘ri va teskari bir yo‘nalishli kesishtirishlar.
- 19.To‘g‘ri va teskari ko‘p yo‘nalishli kesishtirishlar.
- 20.Polygonometriya yo‘lini va to‘rini tenglashtirish
- 21.Bir necha tugun nuqtali polygonometriya to‘rini ketma-ket yaqinlashish usulida tenglashtirish.
- 22.Stereotopografik usulda plan olish.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

1-kursda kurs ishiga tavsiya etiladigan mavzular

1. Trassani niveliplash.
- Kirish.
- Nivelirlash haqida ma’lumot.
- Trassani niveliplash ishlari tartibi.
- Trassa niveliplash jurnalini ishlash
- Profil tuzish.
- Adabiyotlar ro‘yxati
- Foydalanilgan asboblar.

2. Taxeometrik s’jomka.

- Kirish.
- Topografik s’jomka mohiyati;
- Asboblar va ularni tekshirish
- Taxeometrik s’jomka ish tartibi;
- Taxeometrik plan tuzish;
- Adabiyotlar ro‘yxati.

2-kursda kurs ishiga tavsiya etiladigan mavzular:

1. “1:2000 mashtabda plan olish uchun geodezik asos yaratish loyihasi”
2. Yirik mashtabda planga olish uchun geodezik asos yaratishni loyihalash”.
3. 1:5000 mashtabda stereotopografik plan olish uchun geodezik shaxobcha loyixasini tuzish.

“1:2000 mashtabda plan olish uchun geodezik asos yaratish loyihasi” mavzusidagi kurs ishi quyidagi tarkibda bo‘lishi mumkin:

	<ul style="list-style-type: none"> • Kirish; • Davlat geodezik shaxobchalari haqida ma'lumot; • Balandlik geodezik asos loyihasi; • Planli geodezik asos loyihasi; • To'g'ri va teskari geodezik kesishtirish; • Poligonometriya yo'lining aniqligiga baho berish; • Geodezik asos yaratishda qo'llaniladigan asboblar va ularning xarakteristikasi. <p>• Adabiyotlar ro'yxati.</p>
3.	<p>V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Geodeziya" fani Yerning shakli va kattaligi haqidagi tushunchani; karta va planlarni tuzish usullarini va ularni to'g'ri o'qishni; geodezik o'lchash ishlarini bajarishni, xamda ularning natijalarini hisoblash va baholash asoslarini; geodezik o'lchashlarda yo'l qo'yiladigan xatolarni aniqlash va tuzatishni; geodezik tayanch va plan olish to'rlarini yaratish asoslarini; nazariyalari haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; - Geodeziya, kartografiya va kadastr sohasida barcha ishlar geodezik o'lchash ishlariga asoslanganligi, geodezik o'lchash ishlarini texnik va iqtisodiy jihatdan to'g'ri bajarish va o'lchov ishlari natijalarini matematik qayta ishslash alohida ahamiyatga egaligi, geodezik o'lchovlar asosida tuzilgan karta va planlardan xalq xo'jaligining turli sohalarida, shu jumladan davlat mudofaasi ishlarida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi " - geodezik asboblarni tekshirib va ulardan foydalanib topografik plan olish; geodezik o'lchash ishlarini bajarishni, hamda ularning natijalarini hisoblash va baholash asoslarini; geodezik o'lchashda yo'l qo'yiladigan xatolarni aniqlash va tuzatish malakasiga ega bo'lishi kerak.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • guruhlarda ishslash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishslash va himoya qilish uchun loyihalar.

5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarini to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma (test) ishni topshirish.
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Qodirov A.G‘. “Geodeziya 1”. “Sano-standart” Toshkent – 2018 y. 2. Jo‘rayev D.O. “Geodeziya II-qism” T. 2006 y. 3. Muborakov X. “Geodeziya”. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007 y. 4. lu,Z.; qu, Y., Qiao, S. Geodesy: Introduction to Geodetic Datum and Geodetic Systems., “Spriger”. 2014. 5. E.X.Isakov, U.T.T.Tojiyev, G‘.N.Aliqulov. “Muhandislik geodeziyasi” o‘quv qo‘llanma.Toshkent-“Innovatsion rivojlantirish nashriyoti”-2021 6. G‘.N.Aliqulov, M.J.G‘ofirov, B.N.Jumanov. “Geodeziya” o‘quv qo‘llanma. Qarshi: “Intellekt” nashriyoti. 2021 y. <p>Qo‘srimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 7.Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. T.,O‘zbekiston“. 2017 y. 102 bet. 8.Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. T.” O‘zbekiston”.2016 y. 47 bet. 9.Aylmer Johnson, Plane and geodetic surveying.,CRC Press,2014 10.Avchiyev Sh.K. Toshpulatov S. A. “Injenerlik geodeziyasi” Yosh kuch pressmatbuoti, 2014 y. 11.Poklad G.G.,Gridnev S. P. “Geodeziya”, M.»Akademicheskiy proyekt», 2011 g. 12. Oxunov Z. “Geodeziyadan praktikum” T., “Universitet” 2009. 13. Enginering Surveying . W.Schofield. 2007.ELSIVIER. 14. V.N.Popov., S.I.Chekalin. “Geodeziya” Moskva 2007 g. 15. Muborakov X. “Geodeziya va kartografiya”. T. O‘qituvchi, 2002 y. <p>Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 15. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portalı.

	<p>16. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.</p> <p>17. www.bookpump.com</p> <p>18. www.geostart.ru</p> <p>19. www.geokniga.org</p> <p>20. www.studzona.com</p> <p>21. www.ziyonet.uz</p> <p>22. www.Trimble.com</p> <p>23. www.miigaik.ru.</p> <p>24. www. http://mirknig.com/knigi/nauka_ucheba</p>
7.	Fan dasturi Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti Kengashning 202__ yil “___” _____ dagi ___ -sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	<p>Fan modul uchun ma’sular:</p> <p>G‘.N.Aliqulov - QarMII, “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasi mudiri, q.x.f.n., dotsent</p> <p>M.J.G‘ofirov - QarMII, “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasi katta o‘qituvchisi</p> <p>U.Ibragimov - QarMII, “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasi assistenti</p> <p>J.Mirzayev - QarMII, “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasi assistenti</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>J.O‘rinov. - TIQXMMI Qarshi filiali “Umumtexnika fanlari” kafedrasi kata o‘qituvchisi</p> <p>SH.Fayziyev. – QarMII, “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasi dotsenti</p>

